

**INTERNATIONAL CONFERENCE**  
**“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”**  
**September 25, 2025**

**IJTIMOY MUAMMOLAR VA QAHRAMON XARAKTERINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI**

*Odilova Sadoqat Abduqodir qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*[Sadoqatodilova24@gmail.com](mailto:Sadoqatodilova24@gmail.com) +998944212297*

**Annotatsiya:** Maqolada badiiy adabiyotda qahramon xarakterining shakllanishidagi ijtimoiy muammolarning hal qiluvchi o‘rni tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi adabiy obrazni faqat individual psixologik ko‘rinish sifatida emas, balki davrning ijtimoiy-psixologik jarayonlari ifodachisi sifatida tahlil qilishdir. Metodologik asos sifatida adabiy-tahliliy, qiyosiy va tipologik yondashuvlar qo‘llanilgan. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u adabiy asarlarni tahlil qilishda qahramon obrazini ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

**ВЗАИМОСВЯЗЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ И ХАРАКТЕРА ГЕРОЯ**

*Одилова Садокат Абдукодир кизи*

*Шахрисабзский государственный педагогический институт, докторант PhD*

*E-mail: [sadoqatodilova24@gmail.com](mailto:sadoqatodilova24@gmail.com)*

**Аннотация:** В статье исследуется решающая роль социальных проблем в формировании характера в художественной литературе. Цель исследования заключается в том, чтобы рассматривать литературный образ не только как индивидуальное психологическое явление, но и как отражение социально-психологических процессов своего времени. Методологическую основу работы составляют литературно-аналитический, сравнительный и типологический подходы. Практическая значимость исследования состоит в расширении возможностей анализа художественных произведений посредством изучения образа героя во взаимосвязи с социальным окружением.

**THE CORRELATION BETWEEN SOCIAL PROBLEMS AND THE DEVELOPMENT OF THE PROTAGONIST’S CHARACTER**

*Odilova Sadoqat Abduqodir qizi*

*Shahrisabz State Pedagogical Institute, PhD Candidate*

*E-mail: [sadoqatodilova24@gmail.com](mailto:sadoqatodilova24@gmail.com)*

**Abstract:** The article examines the decisive role of social issues in the formation of a character in fiction. The aim of the study is to analyze the literary image not only as an individual psychological phenomenon, but also as a representation of the socio-psychological processes of its time. The methodological basis of the research is literary-analytical, comparative, and typological approaches. The practical significance of the study lies in the fact that it expands the possibilities of analyzing literary works by examining the character in close connection with the social environment.

**KIRISH**

Badiiy adabiyotda qahramon xarakterini shakllantirishda ijtimoiy muammolar muhim determinant hisoblanadi. Ushbu tushunchaga alohida o‘rin berilmasa ham, u qahramon xarakteriga, yashash sharoiti-yu dunyoqarashiga muallif tomonidan bevosita singdirilgan bo‘ladi. Asardagi har bir personaj yoki xarakter ijtimoiy borliq bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Adabiyotshunos olim Hotam Umurov ta’kidlaganidek, “adabiyotning vazifasi inson ruhiyatining ma’naviyatga va ijtimoiy borliqqa o‘zaro ta’sirini o‘rganish, tadqiq qilish bilan amalga oshiriladi”.<sup>1</sup>

Qahramonning qarorlari, xatti-harakatlari va ichki psixologik holati ko‘pincha uning jamiyatdagi ijtimoiy holati, mavjud konfliktlar va sotsiologik vaziyat bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli qahramon xarakterini tahlil qilishda mavjud sotsiologik muamolarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Adabiy asarda qahramon xakteri hech qachon faqat individual ruhiy xususiyatlar yig‘indisi sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarning badiiy modeli sifatida namoyon bo‘ladi. Xarakter tipologiyasi nuqtayi nazaridan olganda, obrazning shakllanishida uning shaxsiy temperamenti yoki psixik holatidan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy muhitning sotsial determinatsiyasi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Boshqacha aytganda, qahramon qiyofasi – bu muayyan davr ijtimoiy muamolarining shaxs taqdirida ifodalanishi demakdir.

Adabiyotshunoslikda xarakterning badiiy talqini doimo ijtimoiy muhitga bog‘lab o‘rganilgan. Masalan, realistik adabiyotda obraz jamiyatdagi ziddiyatlarni ko‘rsatish vositasi sifatida qaraladi. Uning asosiy tamoyillaridan biri – voqelikni haqqoniy tasvirlash bo‘lsa, bu tamoyil, eng avvalo, qahramonlarning ijtimoiy konfliktlardagi ishtiroki orqali namoyon bo‘ladi. konfliktning manbai ko‘pincha ijtimoiy tengsizlik, mafkuraviy qarama-qarshilik yoki qadriyatlar to‘qnashuvi bo‘lib, bu jarayon qahramon xarakterining shakllanishini belgilab beradi.

Qahramon xarakterining shakllanishida ijtimoiy ziddiyatlar asosiy “katalizator” vazifasini bajaradi. Jamiyatda mavjud qarama-qarshiliklar – tabaqalar o‘rtasidagi tafovut, eski va yangi qarashlar to‘qnashuvi, milliy qadriyatlar va begona mafkuralar kurashi – bularning barchasi qahramon dunyoqarashiga ta’sir etadi. Natijada yozuvchi yaratayotgan obraz faqat individual shaxs emas, balki bir davrning ijtimoiy muammolarini mujassamlashtirgan timsolga aylanadi. Shu jihatdan qaraganda, adabiy qahramonikki qirrali vazifani bajaradi: bir tomondan u o‘zining shaxsiy taqdirini kechirayotgan shaxs, ikkinchi tomondan esa jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning badiiy ko‘rinishidir.

Shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabat badiiy xarakterning eng muhim kategoriyalaridan biridir. Qahramon xarakterining shakllanish jarayonini tahlil qilar ekanmiz jamiyat hayoti bilan birga psixologik omillar ham o‘zaro uyg‘unlikda kechishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, qahramonning ruhiy portreti – uning ichki kechinmalari doimo tashqi ijtimoiy sharoit bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. Bu esa adabiy obrazni nafaqat individual ruhiyat ifodachisi, balki ijtimoiy ongning ko‘zgusi sifatida namoyon qiladi.

Tarixiy jarayonlarga nazar tashlasak, ko‘plab badiiy asarlarda qahramonlarning xakteri milliy-ozodlik, ma’rifatparvarlik, erkinlik uchun kurash singari ijtimoiy muammolar ta’sirida

---

<sup>1</sup> Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: 2004. 22-b.

shakllanganini ko‘ramiz. Shaxsiy manfaat va ijtimoiy burch o‘rtasidagi ziddiyat ko‘pincha xarakter dinamikasining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma‘noda, obrazning qismati – bu shunchaki individual hayot emas, balki ijtimoiy ongning in‘ikosi sanaladi. Tarixda jamiyat va shaxs orasidagi ijtimoiy munosabatlarni bugungidek ta‘sirchan va haqqoniy aks ettirilmagan bo‘lishi mumkin, lekin bugungi bosqichga yetishda o‘tmishdagi realizm asos bo‘lgani aniq. Chunki “bilish maqsadining ustuvorligi bois realizm insonni ijtimoiy muhit bilan aloqada tasvirlaydi, ijtimoiy-tarixiy sharoitning inson taqdiri va fe‘l atvoriga ta‘sirini teran badiiy tadqiq etadi”.<sup>2</sup>

## NATIJA VA MUHOKAMA

Zamonaviy adabiyotda xarakter talqinida modernistik va postmodernistik mezonlar seziladi. Bu yo‘nalishlarda qahramonning ichki dunyosi, iztiroblari, dunyoqarashi ijtimoiy muhitdan ajralmagan holda tasvirlanadi. Masalan, shaxsning yolg‘izlanishi, jamiyatga begonalashuvi, ma‘naviy bo‘shliqni his etishi – bularning barchasi nafaqat psixologik, balki ijtimoiy muammolarning ham badiiy ko‘rinishi hisoblanadi. Buni yozuvchi Murod Muhammad Do‘stning ko‘plab hikoya va qissalarida ham ko‘rish mumkin. Masalan, adibning “Dasht-u dalalarda” hikoyasini olaylik. Hikoya syujeti Polvon va Xadicha taqdirida qahramonlarning ichki kechinmalari orqali davrning ruhiy-axloqiy manzarasi chiziladi. Asarda asosiy ijtimoiy muammo – shaxsiy his-tuyg‘ular va jamiyat me‘yorlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikdir. Taloq masalasi shu kolliziyaning eng keskin ko‘rinishidir. Nazar Mahsumning: “Talog‘ini aytasiz-u, shartta qirqasiz. Davosi – shu!”, - degan gapi tashqi tomondan quruq ijtimoiy qoida sifatida eshitsu-da, badiiy mazmun jihatidan bir nechta qatlamli ma‘noga ega. Bu yerda Nazar Maxsum “shaxs” sifatida emas, balki jamiyatdagi “an‘ana vakili” sifatida maydonga chiqadi. U o‘zini “qoidani bajaruvchi”, “diniy va ijtimoiy tartibni himoya qiluvchi” deb his qiladi. Shuning uchun uning so‘zlari shunchaki shaxsiy maslahat emas, jamiyatning hukmron ovozi sifatida yangraydi. Biroq muhim jihati shundaki, yozuvchi bu sahnani biryozlama hukm sifatida bermaydi. Sababi darhol Polvonning o‘ziga xos javobi beriladi: “Ko‘zim qiymadi, Maxsum buva. Aytsummi deymen-u ko‘zim qiymaydi”. Xadicha ketgach uy bamisoli o‘lik chiqqanday huvvillaydi. Shu o‘rinda Polvonning yerto‘laga tushib yashash sahnasiga e‘tibor qarataylik. Muallif unga ramziy yuk beradi. Ya‘ni bu nafaqat jismoniy joylashuv, balki ruhiy tushkunlik belgisi.”Yerto‘la naq lahadning o‘zginasi”, deya ta‘rif beriladi. Bu qahramonning jamiyatdan ajralishi ichki “o‘lim” holatini bildiradi. Yolg‘izlik motivi Polvonning itiga murojaatida yana ham seziladi: “Mening holim shu, Qoratoyjon, xotin ketdi, har kim o‘z yo‘liga ekan”. Bu satrlar qahramonning begonalashgan ruhiy olamini ochib beradi. Hikoyada konflikt shaxsiy muhabbat va ijtimoiy qoidalar to‘qnashuvidan kelib chiqadi. Bu qarama-qarshilik ramziy obrazlar orqali yanada kuchaytirilgan. Umuman olganda, ushbu hikoya Murod Muhammad Do‘st ijodida shaxs va jamiyat, muhabbat va an‘ana, yolg‘izlik va hayotga intilishning dramatic talqinini beradi. Hikoyada ijtimoiy muammolar Polvon va Xadicha xarakterlari orqali ochilgan. Polvon obrazida insoniy kuch va zaiflik ziddiyati mujassam bo‘lsa, milliy ayol timsolining sof va iztirobli ko‘rinishini ifodalaydi. Ushbu hikoya o‘zbek nasrida psixologizm, konfliktologiya va ramziy tasvirning yorqin namunasi bo‘lib, ijtimoiy muammolarni badiiy talqin orqali umumlashtiradi.

Adabiyotdagi xarakterlarning tipologiyasini o‘rganar ekanmiz, ularning hammasida umumiy qonuniyatni ko‘ramiz: har qanday qahramon muayyan ijtimoiy muammolar fonida yaratiladi va ana

<sup>2</sup> Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2017. 276-b.

**INTERNATIONAL CONFERENCE**  
**“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”**  
**September 25, 2025**

shu muammolar uning xarakterini shallantiruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Demak, xarakter va ijtimoiy muammolar bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Ularning o‘zaro bog‘liqligi adabiyotning badiiy-estetik mohiyatini belgilab beradi. Jumladan, “har qanday badiiy obraz konkretlik xususiyatiga ega. Zero uning asosi bo‘lgan real insonkonkret davr, hudud va ijtimoiy muhitda harakat qiladi”.<sup>3</sup>

### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, qahramon xakteri adabiyotning ijtimoiy mazmunini ochib beruvchi markaziy kategoriya hisoblanadi. Xarakter – bu yozuvchining ijtimoiy voqelikka munosabat, jamiyatdagi muammolarga badiiy javobidir. Adabiy asar qahramonsiz ijtimoiy muammolarni yetarlicha ochib bera olmaydi. Shu bois xarakter va ijtimoiy muammolar o‘zaro birlikda mavjud bo‘lib, biri ikkinchisini yoritishda vosita vazifasini bajaradi.

---

<sup>3</sup> Quronov D. Nazariy qaydlar. Akedemnashr. T.: 2018. 76-b.